

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING CHAKANA TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 889,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 13,4% ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 247,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 66,3%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 641,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 0,9%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 74,7 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2% ga oshgan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana tovar aylanmasi hajmi xamda o'sish sur'atlari

| | Jami (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Yirik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--|---------------------|--|---------------------------------|--|
|--|---------------------|--|---------------------------------|--|

| | | | | |
|------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Xorazm viloyati | 889,0 | 113,4 | 247,5 | 166,3 |
|------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|

shaharlar:

| | | | | |
|----------------|-------|-------|-------|-------|
| Urganch | 376,1 | 128,1 | 212,5 | 162,3 |
| Xiva | 27,5 | 102,1 | 1,8 | 109,8 |


tumanlar:

| | | | | |
|--------------------|------|-------|------|--------|
| Bog'ot | 38,8 | 115,7 | 4,8 | 42,1 မ |
| Gurlan | 55,9 | 101,5 | 1,4 | 151,9 |
| Qo'shko'pir | 32,4 | 96,7 | 0,7 | 34,1 |
| Urganch | 81,6 | 104,6 | 7,3 | 169,1 |
| Xazorasp | 92,8 | 98,5 | 3,3 | 62,7 |
| Xonqa | 58,5 | 123,6 | 11,6 | 9,8 မ |
| Xiva | 19,1 | 104,6 | 0,3 | 171,7 |

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

| | | | | |
|-------------------|------|-------|-----|-------|
| Shovot | 45,2 | 104,2 | 3,0 | 2,1 м |
| Yangiariq | 42,0 | 100,4 | 0,7 | 108,5 |
| Yangibozor | 19,0 | 101,8 | 0,1 | 2,5 м |


**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**



2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur`atlari Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlarida qayd etildi.

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 66,3%ga o'sdi va 248,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 27,8% ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 641,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,9% ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 72,2% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 YIL
YANVAR-FEVRAL




2019 YIL
YANVAR-FEVRAL



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirdorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Yangibozor (99,5%), Xiva (98,5%), Yangiariq (98,3%) va Qo'shko'pir (97,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 27,8% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (56,5%), Xonqa (19,9%) va Bog'ot (12,3%) tumanlarida kuzatilgan.


XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

| | Yirik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|------------------------|---------------------------------|---|------------------------------------|---|
| Xorazm viloyati | 247,5 | 166,3 | 641,5 | 100,9 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Urganch | 212,5 | 162,3 | 163,6 | 100,6 |
| Xiva | 1,8 | 109,8 | 25,7 | 101,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Bog'ot | 4,8 | 42,1 м | 34,1 | 101,8 |
| Gurlan | 1,4 | 151,9 | 54,5 | 100,7 |
| Qo'shko'pir | 0,7 | 34,1 | 31,7 | 101,0 |
| Urganch | 7,3 | 169,1 | 74,3 | 100,9 |
| Xazorasp | 3,3 | 62,7 | 89,5 | 100,7 |
| Xonqa | 11,6 | 9,8 м | 46,9 | 101,6 |
| Xiva | 0,3 | 171,7 | 18,8 | 103,9 |
| Shovot | 3,0 | 2,1 м | 42,2 | 100,7 |
| Yangiariq | 0,7 | 108,5 | 41,3 | 100,3 |
| Yangibozor | 0,1 | 2,5 м | 18,9 | 101,5 |

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 488,4 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 11,5%ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-fevral oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Urganch shahri (2667,6 ming.so`m), Urganch (425,2 ming. so`m) va Gurlan (387,6 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xiva (134,9 ming.so`m), Qo'shko'pir (194,0 ming.so`m) va Yangibozor (223,9 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|-----------------|-----------|--|
| Xorazm viloyati | 488,4 | 111,5 |

shaharlar:

| | | |
|---------|--------|-------|
| Urganch | 2667,6 | 126,9 |
| Xiva | 305,6 | 100,7 |

tumanlar:

| | | |
|-------------|-------|-------|
| Bog'ot | 243,5 | 113,7 |
| Gurlan | 387,6 | 100,1 |
| Qo'shko'pir | 194,0 | 95,1 |
| Urganch | 425,2 | 102,6 |
| Xazorasp | 384,3 | 96,9 |
| Xonqa | 323,1 | 121,6 |
| Xiva | 134,9 | 102,7 |
| Shovot | 274,2 | 102,4 |
| Yangiariq | 372,7 | 98,8 |
| Yangibozor | 223,9 | 100,2 |

Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9% ni tashkil etib, 16,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4% o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,0% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 207,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 29,3% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik korxonalar hisobiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, 138,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1% ga oshgan. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 67,0% ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Xiva shahrida (100,0%), Yangibozor tumani (100,0%), yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 33,0% ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Urganch tumanida (61,6%), Urganch shahrida (21,1%) kuzatildi.

XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

| | Jami (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Yirik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|---------------------|--|------------------------------------|--|-------------------------------------|--|
| Xorazm viloyati | 207,7 | 129,3 | 68,4 | 2,0 м | 138,8 | 110,1 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | |
| Urganch | 64,8 | 122,7 | 13,7 | 2,1 м | 51,2 | 110,7 |
| Xiva | 6,3 | 112,2 | 0,002 | 36,6 | 6,3 | 112,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Bog'ot | 3,0 | 127,2 | 0,002 | 12,9 | 3,0 | 128,0 |
| Gurlan | 4,5 | 109,5 | 0,004 | 41,4 | 4,5 | 109,6 |
| Qo'shko'pir | 0,7 | 115,3 | 0,01 | 9,7 м | 0,6 | 113,6 |
| Urganch | 88,7 | 151,0 | 54,6 | 2,0 м | 34,1 | 108,0 |
| Xazorasp | 4,6 | 102,8 | 0,03 | 7,7 | 4,5 | 111,3 |
| Xonqa | 11,0 | 111,7 | 0,01 | 95,9 | 11,0 | 111,7 |
| Xiva | 3,9 | 111,9 | 0,01 | 112,0 | 3,8 | 112,0 |
| Shovot | 5,6 | 113,3 | 0,1 | 5,1 м | 5,5 | 112,0 |
| Yangiariq | 4,0 | 113,3 | 0,003 | 13,3 | 4,0 | 114,0 |
| Yangibozor | 10,3 | 103,6 | 0,0003 | 2,5 м | 10,3 | 103,6 |

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur`ati Urganch tumani (151,0%) va Bog'ot tumani (127,2%) da qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:62-224-65-09